

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OILA HAMKORLIGI INTEGRATSIYASINING MAZMUNI

**Beknazarova Madinaxon Abdumalik qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachilarining oila bilan hamkorligi integratsiyasining mazmuni o'z aksini topgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagogning bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lish masalalari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lim tashkiloti, integratsion yondashuv, tarbiyachi, oila, ijtimoiy muhit, hamkorlik.*

**Аннотация:** *В статье отражено содержание интеграции сотрудничества воспитателей с семьей в воспитании и обучении детей дошкольного возраста. Освещены вопросы искреннего общения квалифицированного педагога с детьми и семьями по поводу их поведения при успешной деятельности в дошкольных образовательных организациях.*

**Ключевые слова:** *Дошкольная организация, интеграционный подход, воспитатель, семья, социальная среда, содержание совместной работы.*

Biz ma'lumki jahon ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlantirishda ta'lim va tarbiya samaradorligiga yo'naltirilgan ilg'or yondashuvlar va texnologiyalar tatbiq etish amaliyoti keng joriy etilgan. Ayniqsa, oila bilan maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyaviy imkoniyatlarini integratsiyalash orqali bolalarni ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Angliya, Germaniya, AQSH, Koreya, Yaponiya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim jarayoniga integratsion yondashuvni ta'minlash bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni integratsion yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish va bu borada tarbiyaviy jarayonlarga kompleks yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-

axloqiy kompetensiyalarni tarkib toptirishning innovatsionpedagogik modellarini ishlab chiqish, ayniqsa maqbul diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini tashxis etishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, bolalarni dastlabki odob-axloq qoidalariga o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni integratsion yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo'lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a'zolari o'rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta'lim olishiga ijobiy hissa qo'shadi. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida berilayotgan ta'limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo'layotgan qiziqish va ta'limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi.

Hamkorlik deganda, ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo'lib, bir-birlarini layoqatli deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik tarbiyachi bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o'rganayotganiga tayanib, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashrida maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi,

trening, maslahat, konferensiya, davra suhbat, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);

- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);

- ota-onalarni guruh va/yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);

- ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);

- maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);

- bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).

So'ngi yillar ichida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida qarorlari qabul qilinganidan so'ng, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti oilani qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy tashkilot sifatida bolani tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishga yordam beradi. Mavjud ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitda oila va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlar mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ma'lum bir bosqichda oila, ilk

bolalikni parvarish qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mahalliy jamoatchilik asosiy o'quv, tarbiyaviy va rivojlanayotgan mikromuhit – ta'lim makonini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ham, oila ham, mahalla ham ijtimoiy tajribani bolaga o'ziga xos tarzda yetkazadi. Faqat ular bir-biri bilan uyg'un holda kichkina insonning katta dunyoga qadam tashlashlari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadilar. Jamiyat va oilaviy ta'lim o'rtasidagi munosabatlar g'oyasi bir qator me'yoriy hujjatlarda, shu jumladan "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" va "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizom"da o'z aksini topgan (Vazirlar Mahkamasining 2019 yil № 13 maydagi 391-son qarori). Bu borada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802 son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila hamkorligi integratsiyasi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ayniqsa, tarbiyachi bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar tarbiyachini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu tarbiyachi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Guruh tarbiyachisi o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Tarbiyachining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat guruh va tashkilot miqyosi bilan

cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va tarbiyalanuvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi. Yuqorida keltirilib o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, shaxsni tarbiyalashda oila, maktabgacha ta'lim va mahallaning hamkorlik usullarining xilma-xilligini ko'rsatadi va bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ta'lim vazifalarini integratsiyalashning dolzarbligi ham shundaki bolalarni maktabga tayyorlash davrida ayniqsa kuchaymoqda. Bolalarni maktabga tayyorlashda MTT va oilaning ta'lim vazifalarini integratsiyalashuvi MTT va oilani qo'llab-quvvatlaydigan yagona ta'lim makonini yaratishni anglatadi. Ishning maqsadi bolani maktabga tayyorlash davrida oila bilan pedagogik hamkorlik dasturining samaradorligini tekshirishdir.

Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lim tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli ortadi. Tig'iz ish sharoitida oila bilan doimiy aloqa uchun vaqt topish hamisha ham oson emas, lekin tarbiyachilar bolaning muvaffaqiyatlari uchun uni juda muhim deb hisoblashsa, u kundalik ishning bir qismiga aylanishi va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining oila bilan hamkorligi jarayonini o'ziga xosligini e'tirof etish imkonini beradi.

Shuni aytib o'tish kerakki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi PK-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risda"gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashining (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab berdi. Kuzatuv kengashining umumiy qoidalariga nazar solsak davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (bundan buyon matnda tashkilot deb yuritiladi) tatbiq etilgani, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tavsiyaviy hususiyatga egaligi, Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro'yhatidan o'tkazilmaydi. Kengash tashkilotni boshqarishda strategik organ hisoblanishi aytib o'tilgan. Tashkilotning ustuvor vazifalarini belgilash, maktabgacha ta'lim tuman bo'lim (bundan buyon matnda hududiy bo'lim deb yuritiladi) tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorini saylash, tashkilotning maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash, tashkilotda amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish, Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa qonun hujjatlari, shuningdek tashkilotning Ustavi hamda mazkur Nizom asosida amalga oshirishi Kengashning asosiy maqsadidir.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim tarbiyaviy jarayonida oila hamkorligi integratsiyasining mustahkamligini tashkil etish yo'llari, farzand tarbiyasida otaonaning huquq va majburiyatlari, ota-onalar tomonidan oilada sog'lom muhitni tashkil etish haqida nazariy amaliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Oilaning asosini ota-ona va farzand tashkil qiladi. Ota-onaning oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri farzandining har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida o'z hissani qo'shishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs bo'lib shakllanishida nafaqat oiladagi tarbiya, balki ta'lim muassalarining ham o'z o'rnini bor. Uzoq vaqt davomida shaxsning shakllanishida muhimroq bo'lgan: oila yoki ijtimoiy tarbiya (maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, boshqa ta'lim muassasalari). Bolaning hayoti qanchalik mantiqiy va mazmunli bo'lsa, onaning tashvishlari doirasi kengroq bo'ladi. oila haqiqiy ta'lim organidir, u ishni o'rgatadi va jonli so'z faqat to'ldiradi va hayotning bo'sh joyiga tushib, butunlay boshqacha taassurot qoldiradi. Oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi. Shunday qilib MTT va oila hamkorlik integratsiyasi organik ravishda kundalik, pedagogik faoliyatga kirganini ko'ramiz. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoniga ota-onalarni jalb qilish bo'yicha ishlar qiyin, u sabr-toqat va MTT pedagog xodimlaridan cheksiz ijodiy izlanishlarni talab qiladi. Ammo u maktabgacha ta'lim jarayonining asosi bo'lsa, uning samaradorligi sezilarli darajada oshishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2018yil
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16-dekabr 2019-yil, ORQ-595-son
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni 2020 yil, 802-

sonl 5. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli, 2019 yil

6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk qadam davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/, 2022 yil

7. Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik bo'yicha uslubiy qo'llanma – Toshkent-2020 yil

8. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: "Tib-kitob", 2010 yil 9. [www.w.ziyonet.uz](http://www.w.ziyonet.uz)